

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 3

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 796 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана.....	10
Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиров Жалолиддин Очилович, Самадов Хомид Самандарович	
Investitsion marketingni rivojlantirish asosida mintaqa investitsiya jozibadorligini oshirish	16
Ahmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi.....	22
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamanov Alisher	
Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan.....	28
Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna	
Oliy o'quv yurtlarida matematik statistikani o'qitishning xususiyatlari.....	34
Shamsiyev Damin Najmiddinovich, Aymatova Farida Xo'razovna	
Turizm tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari	37
Mardonova Dilafruz Kosimovna	
Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti: O'zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari.....	41
Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o'g'li	
Mamalakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli	46
Akramov Azamat Ramziddinovich	
Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati	53
Iminov Mahmudjon Azimjon o'g'li	
Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi.....	60
Jiyamuratov Rustam Nuridinovich	
Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim mezonini.....	65
Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Iste'molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakllantirish.....	70
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	75
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.....	80
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	84
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
Strategik boshqaruvda xususiy kapital samaradorligini baholash.....	89
Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo'llari	100
Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna	
Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili	105
Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna	
Зарубежный опыт активизации экономической активности домохозяйств.....	111
Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсиков Артемий Александрович	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan.....	116
Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos O'g'li	



Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati	121
Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li	
Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar	125
Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi	
Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari	131
Akobirova Nodira Najmiddin qizi	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'llari	135
Axmedova Nafisa Amirddin qizi	
Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry	140
Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna	
Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modelashtirish	144
Bobomuratov Imomqul Islamovich	
Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili	149
Talipova Dilfuza Nabiyeвна	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	154
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue	158
Meyliev O. R., Gofurova K.	
Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri	166
Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li	
Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan	170
Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna	
Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini o'tkazish amaliyoti	174
Jo'rayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari	178
Kamilova Iroda Xusniddinovna	
Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish	183
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan o'rni va ularning rivojlanishi	188
Raxmataliyev Muzaffar Eshdavatovich	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari	194
Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna	
O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish	200
Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li	
Andijon viloyatida kambag'allik darajasini qisqarishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar	214
Musaeva Ziyoda Allayarovna	
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi eksportida marketing muammolari	218
Musyeva Shoirazimovna, Agzamov Avazxon Talgatovich	
Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari	223
Akramova Nargiza Axrorovna	
Menejmentda ishbilarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qo'llash shart-sharoitlari	227
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari	231
Nazarova Latofat Toirjon qizi	
O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	235
Nurmuxammedov Matlab Yunusovich	



Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish.....	240
Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	246
O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urazov	
Methodological Aspects for Branding in Private Schools.....	251
Odilova Sitora Sayfitdin qizi	
Совершенствование процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора.....	256
Олимов Элёр Фазлиддин угли, Искандаров Суннатилло Бахриддин угли	
Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish	261
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari.....	267
Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari	275
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Oliy ta'limda boshqaruv strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi.....	279
Saidqulova Firuza Farmonovna	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari	283
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili	288
Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna	
Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari.....	294
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions	303
Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi	
Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish.....	307
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimliklarni baholashni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	311
Xasanova Nasiba Tolliboy qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari.....	314
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Oliy ta'lim muassasalarida gibril bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish	319
Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан	325
Акбарова Лайло Упашевна	
Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari.....	330
Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T., Obidjonov J. T.	
Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida	334
Davlayev G'olib Ashurovich	
Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi	337
Djurayeva Dilnoza Davron qizi	
Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari.....	343
J. A. Ismatullayev, D. X. O'rinov	
Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar	348
Jorabayev Jasur Abduraxmanovich	



Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi	354
Ibragimov M. M., Ergashev O. F.	
Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari	358
Karimov Anvar Aktam o'g'li	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	362
Qurbonov Muxiddin Abdullayevich	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar.....	367
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini	373
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari eksport faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	380
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muammolari va dolzarb vazifalari	386
Musyeva Shoiraz Azimovna	
Устойчивый и инклюзивный рост: взаимосвязь экономического прогресса с социальным равенством и экологическим управлением	390
Нодирбек Холбаев	
Mintaqalarni investitsion jozibadorligini taraqqiyot strategiyasiga ta'sirini statistik baholash.....	396
Nuriddinov Zufar Akbarovich	
Финансирование каракулеводства: преодоление финансовых вызовов в пустынных регионах Узбекистана	402
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....	408
Oybek Elmuratov	
Intellectual mulkning iqtisodiy mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari	411
Maxmudova Nargiza Davlyat qizi	
Implementation and use of Digital Technologies in Logistics Abstract.....	416
Kushakova Mamura, Koshakova Mukhlisa Surat qizi	
Innovatsion iqtisodiyot tushunchasining mazmun mohiyati	421
Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li	
Raqamlashtirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida.....	426
Mamajonova Durdonahon Mamaruzi qizi	
O'zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.....	431
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Инновационные методы переработки горных отходов для экологической устойчивости в Узбекистане	437
Аскарлов Бахтиер Аскарлов, Собирова Мукаддас Хамидуллаева	
Опыт зарубежных стран по стимулированию производства сельскохозяйственной продукции и перспективы внедрения в Узбекистан.....	442
Холиков Сулаймон Уткир угли	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlarini.....	447
Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni statistik tahlili.....	452
Sayfullayev Siddik Nosirovich	
Sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash.....	457
Sattorov Shoxrux Maxmudjon o'g'li	



Kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari	462
Turdiyeva Uzayda Omirbayevna	
Адаптивный искусственный интеллект в управлении человеческими ресурсами	469
Хайдарова Малика Шокирджановна	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljallangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida	478
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
Investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risklarni sifat jihatdan baholash usullarining o'ziga xos xususiyatlari	482
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash tartib va ularni takomillashtirish yo'llari	491
Yunusova Ozoda Anvarjon qizi	
Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda soliq salohiyatini oshirishning nazariy jihatlarini	498
E. N. Raximov	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi	504
Avazov Ilxom Ravshanovich	
Inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish vositalarini ishlab chiqish	509
Djuraeva Guzal Shavkatovna	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	513
Erkinxojiev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalarni moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari	517
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
The impact of corporate governance on firm performance and financial stability	524
Muhammadyor Yunusov	
Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari	537
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish yo'llari	541
Mutalova Dilorom Maxamadjanovna, Kenjaboyeva Nigina	
Iqtisodiy savodxonlik hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi to'g'ri nisbatdagi bog'liqlik munosabatining fundamental asoslari	544
Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi	
Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari	550
Umarova Hulkar Umidulloyevna	
O'zbekistonda korxona boshqaruvida kadrlar salohiyatidan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning xorij tajribasi	555
Do'stova Aziza Qahramonovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimining xususiyatlari	559
Iroda Majidova	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning muhim xususiyatlari	565
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini asosiy yo'nalishlari	569
Tuychiyeva Vasila Faxriddin qizi	
“Зелёная экономика” как фактор повышения экономического роста страны	573
Тураева Адиба Икрамовна	
Oilada sarf-xarajatlar samarasiga erishishning muhimligi	580
Xasanov Rustam Rabimovich	
Aholi farovonlik darajasidagi farqlarni tartiblash yo'nalishlari	583
Xasanov Rustam Rabimovich, Turdiyev Zoxidjon Rustamovich	



Совершенствование оценки стоимости объектов недвижимости в Узбекистане на основе зарубежного опыта.....	588
Хомитов К. З., Халилова Л. Ш.	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ahamiyati.....	594
Choriyeva Nigina Kaxramonovna	
Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo'llari	598
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	
Yengil sanoatni rivojlanishida Germaniya tajribasi.....	601
F. Jumaniyazova, G'ulomov Ibroxim Rustam o'g'li	
The efficiency of usage of Islamic finance instruments in security market.....	607
Khasanov Umarbek Begmat ugli	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	613
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari	621
Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li	
Mehnat bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish	627
Maxammadiyev M. M.	
Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini optimallashtirish asoslari.....	632
Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
Elektron pullarni rivojlantirish yo'llari	636
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Загрязнение окружающей среды в Узбекистане: проблемы, причины и пути решения	644
Ишонкулова Феруза Асатовна, Шукуров Тимур Умидович	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalash modeli orqali takomillashtirish	649
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyeвна	
Land Tax Received From Individuals and its Share in the Budget of the Republic of Uzbekistan	656
Hakimov Feruz Khurshid ugli	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar tahlili.....	659
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi, Sharapova Mashxura Azadovna	
Qurilish xizmatlari ma'lumotlar tizimini takomillashtirish imkoniyatlari.....	665
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich, Nurfayziyev Elyor Zayniddinovich	
Ipotekali kreditlashni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari	670
Turdiyev Shaxriddin Erxonovich	
Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari	675
Berdiyev Anvar Abdivaliyevich	
Auditda yetarli va mos dalillarni to'plash tartibi	681
Meliyev Isroil Ismoilovich	
"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi.....	686
Urunbayev Saparbek Samatovich	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.....	692
Xolmuradov Raxmatilla Ne'matillaevich	
O'zbekiston mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi xususiyatlari va onlayn platformalar.....	699
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape.....	704
Otaboev Akhmed Makhsudbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasriddinov	



Xalqaro migratsiyaning O'zbekiston mehnat bozori va inson kapitaliga ta'siri.....	709
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Анализ и оценка естественного освещения помещений образовательных учреждений.....	714
Пирмухамедова Шахноза	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан...	719
Рузиева Нилуфар Тулкин кизи	
Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли.....	725
Бибутова Шахло Саъдуллаевна	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning afzalliklari va muammolari	730
Axmedova Dilbar Buronovna	
Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati.....	734
Ishmanova Diana Nurmamadovna	
Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari	737
Muxtorova Madina Azamat qizi	
Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar.....	741
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari	746
Yodgorova Xalima To'liqinovna	
Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....	752
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna	
Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir.....	763
Djumabayeva Shaira Xalillayevna	
Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....	769
Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rne	778
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....	784
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li	
Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri.....	790
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi	



JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Salimov Sherzod Baxtiyorovich

PhD, TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası katta o'qituvchi

Annotatsiya: Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JShDS) budjetni to'ldirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, uning yordami bilan mamlakatdagi moliyaviy ahvol tartibga solinadi. Hozirgi vaqtda soliq yukini imkon qadar kamaytiradigan yangi soliq sxemalari faol ishlab chiqilmoqda. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i – bu jismoniy shaxsning daromadidan undirilishi kerak bo'lgan majburiy to'lov. Uni undirish tartibi soliq qonunchiligi bilan belgilanadi. U progressiv stavkada tasniflanishi mumkin, ya'ni soliq to'lovchining daromadi oshishi bilan uning stavkasi oshadi, yoki proportsional stavkada bo'lishi mumkin, ya'ni soliq to'lovchining qancha daromad olishidan qat'iy nazar bir xil stavkada bo'ladi.

Kalit so'zlar: JShDS, foyda solig'i, QQS, progressiv, proportsional, budjet, to'lov, Soliq kodeksi, tendentsiya.

Abstract: Income tax is one of the main sources of budget funding. In addition, with its help, the financial situation in the country is regulated. Currently, new tax schemes are being actively developed to reduce the tax burden as much as possible. Personal income tax is a mandatory payment that must be levied on the income of an individual. The procedure for its collection is determined by tax legislation. It can be classified as a progressive rate, meaning that the rate increases as the taxpayer's income increases, or a proportional rate, meaning that the rate remains the same regardless of the amount of income earned by the taxpayer.

Key words: Income, income tax, VAT, progressive, proportional, budget, payment, Tax Law, trend.

Аннотация: Налог на доходы физических лиц (НДФЛ) является одним из основных источников пополнения бюджета. Кроме того, с его помощью регулируется финансовая ситуация в стране. В настоящее время активно разрабатываются новые налоговые схемы, позволяющие максимально снизить налоговую нагрузку. НДФЛ – обязательный платеж, который должен взиматься с доходов физического лица. Порядок его взыскания определяется налоговым законодательством. Ее можно классифицировать как прогрессивную ставку, означающую, что ставка увеличивается по мере увеличения дохода налогоплательщика, или пропорциональную ставку, означающую, что ставка остается неизменной независимо от размера дохода, заработанного налогоплательщиком.

Ключевые слова: НДФЛ, налог на прибыль, НДС, прогрессивная, пропорциональная, бюджет, платеж, Налоговый кодекс, тенденция.

KIRISH

Davlat budjet-soliq siyosati davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Soliqlardan samarali foydalanish orqali soliq yukini optimallashtirish bilan davlat o'zining dolzarb vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishga imkon yaratadi. Soliq tizimida eng muhim o'rinni fiskal va tartibga solish funksiyasini bajaradigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i egallaydi. Ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishda daromad solig'ining ahamiyatini hisobga olgan holda, uning davlatdagi xususiyatlarini o'rganish va xorijiy davlatlar bilan taqqoslash juda dolzarbdır.

Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari, Soliq xizmati ma'lumotlariga ko'ra, quyidagicha: O'zbekiston fuqarolarining ishdan olingan daromadlari 13% va olingan dividendlar bo'yicha – 5%, tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan boshqa mamlakatlar fuqarolari (nerezidentlar) uchun 10% va olingan dividendlar bo'yicha – 10% qilib belgilab qo'yilgan.

2024-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlarining asosiy elementlari bo'lgan soliq stavkalari, soliqlarni hisoblash va to'lash tartibi, shu jumladan, ShJBPHga 0,1% o'tkazish, to'lov muddatlari va hisob-kitoblarni taqdim etish bo'yicha o'zgarishlar sodir bo'lmagan bo'lsada, unga imtiyozlar berish bo'yicha ma'lum o'zgarishlar bo'ldi.



Bolalar ta'limi uchun to'lovlarni amalga oshirish uchun imtiyozlarni qo'llashda yosh chegarasi bekor qilindi. Daromad 26 yoshgacha bo'lgan farzandi yoki turmush o'rtog'ining o'qishi uchun yo'naltirilgan bo'lsa, JShDS bo'yicha imtiyoz qo'llanilgan. 2023-yil 1-avgustdan boshlab farzandlar uchun yosh chegarasi bekor qilindi¹.

Jismoniy shaxsning O'zbekiston kasbiy va oliy ta'lim tashkilotlaridagi o'qishga yo'naltirilgan daromadiga JShDS solinmaydi²:

- o'ziniki – yoshidan qat'i nazar;
- bola – yoshidan qat'i nazar;
- turmush o'rtog'i(lar) – 26 yoshgacha.

Jismoniy shaxslarning daromadlari qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirilganda imtiyozlar taqdim etiladi. Quyidagilarga yo'naltirilgan jismoniy shaxslarning daromadlariga JShDS solinmaydi:

- ushbu korxonalar xodimlarining aksiyaga egalik qilish rejasi doirasida aksiyalarni sotib olish – ularning oylik maoshidan ko'p bo'lmagan miqdorda va aksiyalarni ommaviy taklif qilish paytida unga tenglashtirilgan to'lovlar;
- mahalliy fond bozorida chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobi. Bunda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:
- soliq solinmaydigan daromad soliq davrida jami MHEKMning 100 baravaridan oshmasligi kerak;
- to'lovlar o'sib bormaydigan tartibda va shartnoma muddati boshlangan kundan boshlab 12 oy davomida bir martalik to'lovlarni to'lamaslik sharti bilan to'lanadi.

Aksiyalar bo'yicha dividendlar, shuningdek, xo'jalik jamoalarining obligatsiyalari bo'yicha foizlarni to'lashda JShDS bo'yicha imtiyozning amal qilish muddati uzaytirildi.

Soliq kodeksining 483-moddasida 2022-yil 1-apreldan 2024-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davrda jismoniy shaxslarning aksiyalar bo'yicha dividendlar va xo'jalik jamiyatlari obligatsiyalari bo'yicha foizlar tarzidagi daromadlari JShDSdan ozod etilishi nazarda tutilgan edi. Mazkur imtiyoz 2028-yil 31-dekabrgacha uzaytirilgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun JShDS stavkalari indeksatsiya qilinmoqda 2024-yil 1-fevraldan boshlab qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq stavkalari 10 foizga indekslanadi. Masalan, Toshkent shahrida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkor 2023-yilda – 825 000 so'm tolagan bo'lsa, 2024-yilda oyiga 907 500 so'm to'laydi.

“Izlanish va rivojlantirish” (R&D) markazlari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1%ni tashkil qiladi. 2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvargacha “Izlanish va rivojlantirish” (R&D) markazlari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foizni tashkil qiladi³. “O'zbekiston-2030” strategiyasida elektrotexnika, mashinasozlik, to'qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, metallni qayta ishlash, geologiya, energetika, bio-texnologiya, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, transport va logistika kabi yo'nalishlarda “Izlanish va rivojlantirish” (R&D) markazlarini tashkil etish nazarda tutilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

JShDS stavkalarini belgilash iqtisodiy faol aholining ham, davlatning ham manfaatlariga ta'sir qiladi. Daromad solig'ining asosiy vazifalari: davlat budjetining daromad qismini shakllantirish, daromadlarni differentsiallashtirish muammosini yumshatish, aholi daromadlarini adolatli tarzda qayta taqsimlash va ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlashdan iboratdir.

Laffer ^[2] tomonidan bildirilgan fikrga ko'ra soliq adolatligi tamoyili shuni ko'rsatadiki, davlat soliq stavkalarini faqat ijtimoiy xarajatlarni oshirgandagina oshirishi mumkin.

Tsarovska ^[3] fikriga ko'ra, budjet va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan tashqari, JShDS resurslarni bir guruh odamlardan ikkinchisiga qayta taqsimlashga ham hissa qo'shishi kerak.

Gordon va Kopchuk ^[4] ta'kidlashicha, JShDS progressiv stavkasi insonning oilaviy sharoitini hisobga olgan holda chegirmalar taqdim etilishini va shu bilan birga qayta taqsimlash samarasini oshirishi kerak.

Morini va Pellegrino ^[5] JShDSning mohiyati ijtimoiy adolatga erishish va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi murosada yotadi, deb hisoblashadi. Ular qisqa muddatda tengsizlikni kamaytiradigan va davlat budjeti uchun yetarli bo'lgan to'liq mos keladigan daromad solig'i tizimini topish mumkin emas degan xulosaga kelishdi.

Yu Tyurin va L.Napolskix ^[6] daromad solig'i soliq solinadigan shaxsning shaxsiy sharoitlariga maksimal darajada moslashtirilganligi va qayta taqsimlash va kontrtsikl siyosatini amalga oshirish uchun zarur xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli JShDS aniq ijtimoiy xususiyatga ega va aholining real daromadlari darajasiga ta'sir qilish qobiliyatiga ega, deb hisoblaydi.

1 Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida. PF-67-son, 11-band, 08.05.2023-y.

2 Soliq Kodeksi. 378-m. 1-q. 16-b. 2-xatboshi (O'zgarishlar 08.05.2023 y. PF-67-son, 11-bandiga muvofiq kiritilgan.)

3 Soliq Kodeksi, 483-m. 43-q. Imtiyoz 11.09.2023 y. PQ-300-son “O'zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” qarorini ijro etish doirasida taqdim etiladi.



MUHOKAMA


Daromad solig'ining mohiyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu soliqni o'rganish tahlil qilish murakkab bo'lib, u ko'p qirrali iqtisodiy jihatlariga egadir. Davlat miqyosida daromad solig'ini budjetdagi salmog'ini oshirish davlatning iqtisodiy va soliq siyosatini samaradorli shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

1-jadval: 2020–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat budjetiga soliq turlari bo'yicha tushumlar tahlili, mlrd, so'm⁴

	2020		2021		2022		2023	
	Tushum mlrd. so'm	oldingi yilga nisbatan, foizda	Tushum mlrd. so'm	oldingi yilga nisbatan, foizda	Tushum mlrd. so'm	oldingi yilga nisbatan, foizda	Tushum mlrd. so'm	oldingi yilga nisbatan, foizda
Foyda solig'i	28 712,2	175,5	38 363,3	133,6	37 649,9	98,1	40 778,9	108,3
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	15 140,8	119,5	18 917,7	124,9	24 284,5	128,4	29 917,4	123,2
Qo'shilgan qiymat solig'i	31 177,4	92,21	38 439,0	123,3	52 189,4	135,8	57 885,3	110,9
Aksiz solig'i	11 697,3	113,4	13 086,5	111,9	13 455,0	102,8	15 834,4	117,7
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	16 417,1	111,7	15 811,9	96,3	13 887,4	87,8	15 300,3	110,2

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2020–2023-yillarda jismoniy shaxslar uchun daromad solig'i 15 140,8 mlrd. so'mdan 29 917,4 mlrd.so'mga, ya'ni 197,6% ga o'sgan. Daromad solig'ining o'sishiga asosiy omillari aholining ish haqining o'sishi va ish haqi sohasida yashirin iqtisodiyotning pasayishi sabab bo'lgan. Davlat budjetidagi jami daromadlar tarkibidagi ulushini ko'radigan bo'lsak, 1.39% dan 12.9 foizga osgan.


JShDS oldingi yilga nisbatan o'sish sur'atini ko'radigan bo'lsak, 2020-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i dinamikasi ijobiy tendentsiyani saqlab qolmoqda (o'sish sur'ati 119,5% dan 123,2% gacha), bu esa ushbu tushumlarning barqarorligini tasdiqlaydi. Biroq shuni ham hisobga olish kerakki, davlat budjeti soliq tushumlari qiymatining umumiy o'sishi boshqa soliq tushumlari dinamikasining o'sishi bilan izohlanadi. (masalan, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, foyda solig'i, shuningdek, boshqa soliq tushumlari).



1-rasm: 2020–2023-yillarda JShDS, Foyda solig'i, QQS ni davlat budjetiga tushumlarining taqqoslama tahlili



Shu bilan birga, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i o'sish sur'ati 119,5% dan 123,2% foizga oshganligini va ushbu soliq tushumining umumiy dinamikasi boshqa budjetni tashkil etuvchi soliq tushumlarining o'sish sur'atlaridan sezilarli darajada yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.



2-rasm: 2020–2023-yillarda soliqlarning davlat budjetiga tushumining ulushi, foizda

Davlat budjetidagi soliqlarning ulushini tahlil qiladigan bo'lsak (2-rasm), JShDS davlat budjetidagi ulushi 11,39 %dan 12,9% foizgacha oshgan, QQS ning budjetdagi ulushi 23,45%dan 24,9 foizga oshgan, foyda solig'ining budjetdagi salmog'ining ulushi 21,6 foizdan 17,6 % ga kamaygan.

NATIJALAR

Bugungi kunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tizimining faoliyati murakkabligi shundaki ushbu tizimning samaradorligi va soliq to'lovchiga nisbatan ijtimoiy adolat o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlashi zarur. Boshqacha qilib aytganda, daromadlarning adolatli qayta taqsimlanishini ta'minlay oladigan soliq stavkalariga erishish kerak. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash jarayonida soliq to'lovchilarning manfaatlariga etkazilgan zararni maksimal darajada kamaytirish bilan jamiyat tabaqalanishini kamaytirishga erishish kerak.

Progressiv shkalani qo'llashda soliqqa tortilmaydigan minimumni ajratish va qo'llash kerak. Ushbu chora joriy etilgandan keyin budjetda yo'qotishlari bo'lishi mumkin, ammo ular boylarning daromadlariga soliq stavkalarini oshirish orqali qoplanadi.

Bunday amaliyot rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, soliq to'lamaydigan minimal miqdor tegishli davlatda yashash narxidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Aholining sog'lom turmush tarzini ta'minlash maqsadida eng kam miqdor jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga tortilmasligi mantiqan to'g'ri. Shuningdek, yuqorida ko'rib chiqqan olimlarning soliq to'lovchilarga beriladigan standart soliq imtiyozlari miqdorini yashash minimumi miqdorida oshirishni taklif qilmoqdalar.

2-jadval: Yevropa davlatlarining jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari

Davlatlar	Minimal stavkasi (%)	Maksimal stavkasi (%)
Germaniya	0	45
Fransiya	0	45
Buyuk Britaniya	20	45
Shvetsiya	32	57
Italiya	23	43
Ispaniya	19	47
Gollandiya	37.1	49.5



Bugungi kunda JShDS'i tizimi islohotlarni talab qiladi, bu esa budjetga ko'proq mablag'lar tushishini, shuningdek, soliq adolatligini ta'minlaydi. Hozirda dunyoning deyarli barcha davlatlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'zgarmas stavkasidan soliq stavkalarining progressiv stavkasiga o'tganligi, bu islohotning zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Quyida bir nechta Yevropa mamlakatlari uchun daromad solig'i stavkalarining namunaviy jadvali keltirilgan.

Yevropada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i murakkab tizim hidoblanib, oilaviy sharoitiga qarab har xil stavka bo'lib, uylanmaganlar uchun, uylanganlar uchun va farzandi borlar uchun alohida stavka qo'llaniladi.

Misol uchun, Germaniyada Fransiya jismoniy shaxslar uchun maksimal daromad solig'i stavkasi 45% bo'lib, minimal soliq stavkasi 0%, ya'ni soliqqa tortilmaydigan stavkasi hisoblanadi. Buyuk Britaniya esa minimal soliq stavkasi 20% bo'lib, maksimal stavkasi 45% qilib belgilangan. Eng yuqori soliq stavka Shvetsiyada bo'lib, minimal stavka 32% va maksimal stavka 57% ni tashkil etadi. Bizning fikrimizcha, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash va to'lash tartibi yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Soliq imtiyozlari va soliq imtiyozlarini shakllantirish, ulardan foydalanish hamda bir qator boshqa masalalarga e'tibor qaratish o'rinlidir.

To'g'ri soliqqa tortish tizimi real sharoitda shaxsiy daromad solig'i to'lovchilari o'zlarining bevosita ehtiyojlarini to'langan soliqlar miqdori va olingan daromadlar o'rtasidagi parallel to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik o'rtasida muvozanat bo'lgandagina bo'lishi mumkin bo'ladi.

XULOSA

Jismoniy shaxslar daromadlarining keyingi tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ko'plab tadqiqotchilar – olimlar va soliq mutaxassislari proportsional soliq stavkasidan foydalanish maqsadga muvofiq emas degan pozitsiyani egallaydilar. Olimlarning fikricha, o'zgarmas soliq stavka XXI asrning boshida o'z vazifasini bajarib bo'lgan va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning o'sib boruvchi stavkalarini tizimiga o'tish zarur.

Ya'ni, daromadlarni soliqqa tortishda muhim o'zgarishlardan biri yagona soliq stavkasidan progressiv shkalaga o'tish bo'lishi mumkin. Ushbu o'zgarish eng samarali hisoblanib, agar daromad miqdoriga qo'llaniladigan soliq stavkasi to'g'ri hisoblangan bo'lsa, jamiyat tabaqalanishining qisqarishiga va davlat g'aznasini to'ldirishga olib keladi. Aks holda, keskin o'zgarish mamlakatdagi sarmoyaviy muhitni silkitib, jismoniy shaxslar daromadlarining yashirilishiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, biz quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: progressiv soliqqa tortish shkalasini joriy etish jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda adolatlilik tamoyilini amalga oshirish va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobiga mamlakat budjet tizimiga tushumlarni sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi" (yangi tahriri), 2019-yil 30-dekabr. – 402 bet.
2. Laffer A.B. Government Exactions and Revenue Deficiencies // *Cato Journal*. 1981. Vol 1. –№ 1. P. 1-21. ISSN 0273-3072. [Электронный ресурс] Режим доступа: <https://object.cato.org/sites/cato.org/files/serials/files/cato-journal/1981/5/cj1n1-1.pdf>, 21 p.
3. Szarowská I. Personal Income Taxation in a Context of a Tax Structure // *Procedia Economics and Finance*. 2014. Vol. 12. P. 662-669. [Электронный ресурс] Режим доступа: [https://doi.org/10.1016/S2212-5671\(14\)00391-8](https://doi.org/10.1016/S2212-5671(14)00391-8).
4. Gordon Roger H. & Kopczuk Wojciech. The choice of the personal income tax base // *Journal of Public Economics*. Elsevier. 2014. Vol. 118(C). P. 97-11. [Электронный ресурс] Режим доступа: <https://www.nber.org/papers/w20227>
5. Morini M., Pellegrino S. Personal Income Tax Reforms: A Genetic Algorithm Approach // *European Journal of Operational Research*. 2018. Vol. 264. Issue 3. P. 994-1004. ISSN 0377-2217. [Электронный ресурс] Режим доступа: <https://doi.org/10.1016/j.ejor.2016.07.059>.
6. Тюрина Ю.Г., Напольских Л.А. Влияние налога на доходы физических лиц на уровень жизни населения // *Экономика вчера, сегодня, завтра*. 2012. № 7-8. С. 31-51. [Электронный ресурс] Режим доступа: <https://elibrary.ru/item.asp?id=18046189>.
7. Peter K.S., Buttrick S. & Duncan D. Global Reform of Personal Income Taxation 1981-2005: Evidence from 189 Countries // *National Tax Journal*. 2010. 63(3). P. 447-478. [Электронный ресурс] Режим доступа: <https://EconPapers.repec.org/RePEc:ntj:journl:v.63:y:2010.-i:3.-p.447-78>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.